

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Baxranov Sherzod

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI	10-16
---	-------

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSION JARAYONLARI	17-21
--	-------

Sattarova Marhabo Mamatovna

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI	22-30
--	-------

Raxmatov Mirjon

BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN	31-38
---	-------

To'xtasinov Mira'zam

SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	39-42
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	43-48
---	-------

Azgarov Abdumutalib

INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI	49-56
---	-------

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE: INTERNATIONAL EXPERIENCE	57-60
--	-------

Otabekov Javdod

GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI	61-68
--	-------

Navruzov Dilshod Ismatullayevich

AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH	69-74
--	-------

Uralov Temur Boxodir o'g'li

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI Hujjatlashtirish VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	75-81
--	-------

Samandarov Og'abek

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISHDA ARDL MODELINING AHAMIYATI	82-86
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yuldashev Rustam Daniyrovich

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI 87-93

Adilov Zafar Yunusovich

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L 94-98

Berdikulova Surayyo Aslamovna

IJTIMOY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI 99-104

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI 105-113

Yarbaev Xasan Xazratqulovich

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:
MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL 114-118

Maxsudjonov Kamronjon

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA
TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI 119-123

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:
IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV 124-128

Otaqulov Elyor Madiyrovich

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI 129-136

Mamatqulov Rashid Pazilbekovich

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR 137-141

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Niyazov Ravshan Turakulovich

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR
XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI 142-148

Yunusova Xilola Ravshan qizi

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI
"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA 149-154

Absalamova Gulmira Sharifovna

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING
NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA 155-158

Dadajanova Aziza Karimullayevna

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:
A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE 159-170

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI
RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)
ERTAGI MISOLIDA 171-175

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 176-180

<i>To'xtayeva Sarvinoz</i> DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI	181-184
<i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i> TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI	185-189
<i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i> CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY	190-195

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>O'rinboyev Rustamjon</i> A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA	196-206
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI	207-212
<i>G'ofurova Dilafruz</i> AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR	213-218
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI	219-223
<i>Juraeva Asal</i> OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	224-228
<i>Ходжаева Шурин</i> ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ	229-239
<i>Imomniyozov Doniyorbek</i> SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK: IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR	240-250
<i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i> XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI: SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN	251-254
<i>Суннатиллаева Сарвиноз</i> АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА	255-262
<i>Anarbayev Eldor</i> KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	263-269
<i>Ibrohimov Azimjon</i> KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK	270-278

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI	279-285
--	---------

<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i> TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i> OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i> FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING CLASSROOMS IN UZBEKISTAN	303-309
<i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i> INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i> BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i> TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i> "NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE "DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE "INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT"	337-341

Received: 20 July 2025
Accepted: 5 August 2025
Published: 10 August 2025

Article / Original Paper

A COMPARATIVE STUDY OF POETIC SOURCES OF INSPIRATION IN THE POETRY OF TED HUGHES AND IBRAYIM YUSUPOV

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi

PhD researcher at Karakalpak State University

Abstract. This article presents a comparative analysis of the poetic legacy of the Karakalpak poet Ibrayim Yusupov and the English writer Ted Hughes through the lenses of historical, mythological, and natural imagery. Both poets reflect the harsh realities of the 20th century — war, political repression, and environmental crises — through artistic expression. The article examines Yusupov's poems such as "Búlbil uyası" and "Watan topırağı", as well as his use of folk legends and classical mythology. Simultaneously, it examines Hughes's portrayal of war, nature, and myth in his works, including "Bayonet Charge", "Hawk Roosting", and the "Crow" sequence. The study highlights similarities and differences in their sources of inspiration, poetic styles, and use of symbolism, ultimately revealing their shared artistic stance in addressing universal human concerns.

Keywords: Ibrayim Yusupov, Ted Hughes, war theme, mythological imagery, nature poetry, symbolism and allegory, lyrical-epic poem, oral folklore, ecological catastrophe, patriotism.

TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM MANBALARI QIYOSI

Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: danyaimbetova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq shoiri Ibrayim Yusupov va ingliz adibi Ted Xyuzning ijodiy merosi tarixiy, mifologik va tabiat obrazlari orqali qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki shoir ijodida XX asrning og'ir voqealari — urush, siyosiy tazyiq va ekologik muammolar badiiy talqinda ifodalanadi. Maqolada I.Yusupovning "Búlbil uyası" va "Watan topırağı" kabi poemalari, shuningdek, xalq afsonalari va antik miflardan foydalanishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, T.Xyuzning "Bayonet Charge", "Hawk Roosting" va "Crow" turkumidagi asarlari orqali urush, tabiat va mifologiyaning poetik ifodasi yoritiladi. Ijodiy manbalar, poetik uslub va ramzlar qo'llanilishi bo'yicha o'xshashlik va farqlarga e'tibor qaratilib, ikki shoirning insoniyat muammolarini ifodalashdagi umumiy badiiy pozitsiyasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ibrayim Yusupov, Ted Hyuz, urush mavzusi, mifologik obrazlar, tabiat poetikasi, ramz va allegoriya, tabiat poetikasi, liro-epik poema, xalq og'zaki ijodi, ekologik fojia, vatanparvarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N29>

Kirish.

Ibrayim Yusupov ijodi XX asrning murakkab tarixiy voqealari bilan bog'liq tarzda shakllangan. Shoirning ijodida, ayniqsa lirik-epik poemalarida Ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi og'ir sovet davri va 1930-yillardagi qatag'on siyosatining chuqur izlari mavjud. Masalan, uning mashhur "Búlbil uyası" poemasi Ikkinchi jahon urushi davridagi voqealarga asoslangan bo'lib, urush tufayli oilalarning vayron bo'lishi, yosh ayollarning sog'inchli kechinmalari ifodalangan. Yana bir muhim asari – "Watan topırağı" poemasi esa Stalin davridagi qatag'on siyosatidan aziyat chekkan din ulamolari obrazini yaratish orqali o'z

otasining fojiali taqdirini ifodalaydi. Bu jihatdan I.Yusupovning shaxsiy hayotiy tajribasi uning ijodida ijtimoiy-siyosiy manbalar sifatida markaziy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

I.Yusupov ijodida folklor va xalq og'zaki ijodi an'alarining ham ta'siri katta. Masalan, uning "Bayıwlı" lirik qo'shig'i Qoraqalpoq xalq afsonasidagi ota-onasidan la'natlangan qush syujeti asosida yaratilgan. Shoir xalq rivoyatidan ijodiy foydalanib, Vatanga sadoqat g'oyasini kinoyali tarzda ifodalagan. Shu kabi "Mámelek oy" poemasi ham qoraqalpoq xalqining "Kechasi yolg'iz yursang, jin aylantiradi" degan mistik tasavvuridan foydalanib, dunyoning aldovchanligini, odamlarni o'z girdobiga tortuvchi xavf ekanligini ramziy tarzda ko'rsatadi.

I.Yusupov xalq ijodidan tashqari Yevropa adabiyotidagi miflardan ham samarali foydalanadi. Uning "Poseydonnín g'azebi" poemasi qadimgi yunon mifologiyasidagi dengiz xudosi Poseydon obrazi orqali Orol dengizining ekologik fojiasi allegorik shaklda tasvirlangan. Xuddi shuningdek, "Narciss" she'rida Narsiss afsonasi, boshqa she'rlarida esa Prometey obrazi qo'llanilgan. I.Yusupov G'arb mifologiyasini ijodiy tarzda o'zlashtirib, ulardan zamonaviy va umuminsoniy ma'nolar chiqaradi. Shunday qilib, I.Yusupovning ijodiy manbalari xalq og'zaki ijodi va jahon adabiyotining boy an'alari bilan uzviy bog'lanib, shoir she'riyatining mazmuniy va badiiy chuqurligini oshirgan.

T.Xyuz ijodi ham XX asr ingliz adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning she'riyatida urush mavzusi, tabiat go'zalligi va mifologik obrazlar asosiy manbalar sifatida namoyon bo'ladi. T.Xyuz Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davr avlodiga mansub bo'lib, o'zi jang maydonida qatnashmagan bo'lsa ham, urush fojiasining ta'sirini oilasi orqali his etgan. Shoir bolaligi haqida gapirar ekan: "Men o'sgan muhitda eng kattakon, hammayoqni qamrab olgan narsa Birinchi jahon urushi edi,"[8] – deydi. Shu bois urush mavzusi uning ijodida doimiy fon sifatida o'rin egallagan. Masalan, uning mashhur "Bayonet Charge" she'rida jang maydonidagi askarning ruhiy holati tasvirlanib, urushning ma'nosiz va vahshiy mohiyati ochiladi. Shoir bu yerda urush maydonidagi zo'ravonlik va go'zal tabiat manzarasini qarama-qarshi qo'yadi: "sariq quyon alangaga o'xshab yumalab" o'ladi, askar esa "Shoh, sharaf, insof – bular yolg'on edi" degan xulosaga keladi. Bu tarzda T.Xyuz urush g'oyasining butunlay absurd ekanini ta'kidlaydi.

T.Xyuz ijodining yana bir muhim manbasi – uning tug'ilib o'sgan Yorkshir mintaqasining tabiiy muhiti va yovvoyi tabiatidir. T.Xyuz tabiatni ilohiy kuch sifatida ko'rib, insoniyatning tabiatdan uzoqlashuvi xavfidan ogohlantiradi. Uning she'rlarida yirtqich hayvonlar, ayniqsa qushlar (lochin va qarg'a) obrazlari ko'p uchraydi. "Hawk Roosting" she'rida lochin obrazini hokimiyatga tashna diktator sifatida tasvirlaydi. Shu tariqa, animalistik obrazlari orqali inson instinktlarini va zo'ravonlikka moyilligini ochib beradi.

T.Xyuz mifologik obrazlardan foydalanishda ham juda faol bo'lgan. Ayniqsa, uning "Crow" she'rlar turkumi o'ziga xos falsafiy mazmun kasb etadi. Bu turkumda T.Xyuz Shimoliy Amerika hindularining "Triksler" obrazidan foydalanib, Injil va yunon-kelt miflaridagi motivlarni uyg'unlashtiradi. Masalan, qarg'a obrazi orqali Xudo va boshqa diniy-mifologik qahramonlarni zaif, ojiz qilib ko'rsatib, hayotning shafqatsiz haqiqatlarini fosh qiladi. Shu bilan T.Xyuz zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy bo'shliqni, inson va tabiat, ong va ongsizlik o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritishga urinadi. U miflarni zamonamizdagi muammolarni ochishda samarali vosita sifatida qo'llaydi. T.Xyuz shuningdek, antik adabiyot, jumladan Ovidning

“Metamorfozlar” asaridan parchalarni inglizchaga tarjima qilgan va bu orqali ham qadimgi miflarning zamonaviy talqinini taqdim etgan.

Xulosa qilib aytganda, T.Xyuzning badiiy ilhom manbalari urush voqealari, tabiat goʻzalligi va afsonaviy rivoyatlar boʻlib, ularni oʻziga xos tarzda uygʻunlashtirgan. Bu jihatdan u sharq folkloridan ilhomlangan I.Yusupov bilan ruhiy oʻxshashliklarga ega boʻlib, ikkala shoir ham oʻz ijodlarida tarixiy, mifologik va real voqeliklarni ijodiy manba sifatida mohirona qoʻllab, yangi badiiy konsepsiyalar yaratishga muvaffaq boʻlgan.

Vatanparvarlik va vatan sogʻinchi – I.Yusupov lirikasining yetakchi mavzularidan. Shoir Vatanni inson uchun eng oliy qadriyat sifatida tasvirlaydi. “Watan topırağı” poemasi Vatandan ayri yashashga mahkum boʻlgan qahramon (Absamat oxun) umr boʻyi tugʻilib oʻsgan diyori – Qoraqalpoq yurtini qoʻmsab yashaydi. Asarning eng taʼsirli jihatlaridan biri – “Vatan tuprogʻi” detalining takrorlanishidir. Oxun boshiga tushgan sinovlarga qaramay, u tugʻilgan elini unutmaydi. Hatto umrining soʻnggi damlarida ham u oʻgʻliga bitta tugunchada saqlab yurgan tuproqni koʻrsatib, *“Bu – onang qabridan olingan bir siqim tuproq. Men oʻlsam, shu tuproqni ustimga sepgin”* deydi. Ushbu detal orqali shoir Vatan tuprogʻining muqaddasligini madh etadi. Bu motiv I.Yusupovning avvalgi sheʼrlarida ham uchraydi. Jumladan, u rimlik mashhur shoir Ovidiy Nazonning surgundagi oʻlimi haqidagi rivoyatni misol qilib, Vatandan judo boʻlish fojiasini nihoyatda taʼsirli ifodalaydi. I.Yusupov yozadi:

“Jat jurtlarda óldi Ovidiy Nazon,
Watan ayralıǵı shayırdı jıqtı.
Zer ya gáwhar emes, qaltasınan soń,
Túyiwli bir qısım topıraq shıqtı.”[7; 250-b.]

Ushbu misralar zamirida tarixiy haqiqat bor: Ovidiy Qadimgi Rimda quvgʻinga uchragan va umrining oxirigacha Rimga qaytolmay, qora dengiz boʻyida hijron bilan yashagan. I.Yusupov ana shu voqeani yodga olib, Vatandan judo boʻlish qanchalik alamli ekani va ona tuproq zarrachasi ham inson uchun bebaho boʻlishini koʻrsatadi. Xuddi shu gʻoya *“Watan topırağı”* poemasi yanada rivojlantirilgan. Poema qahramoni Oxun Vatan sogʻinchi bilan oʻlsa ham, uning oʻgʻli Vatanga qaytib, otasining vasiyatini ado etadi – ota yurt tuprogʻini qabriga sepadi. Bu yerda vatan tuprogʻi ham real, ham ramziy maʼno kasb etadi: bir siqim tuproq I.Yusupov sheʼriyatida vatanni jonidan ortiq sevish ramziga aylangan.

T.Xyuz ijodida vatan sogʻinchi I.Yusupovdagidek markaziy mavzu boʻlmasa ham, u ham ona zamin va ildizlar mavzusiga eʼtibor qaratgan. T.Xyuz koʻplab sheʼrlarida oʻzining tugʻilib oʻsgan yerlari – Angliya shimolidagi tabiiy manzaralarni tasvirlaydi. Masalan, uning *“Remains of Elmet”* turkumi sobiq Elmet qirolligi (bugungi Yorkshire hududi) madaniy merosining yemirilishini kuylaydi. T.Xyuz bu sheʼrlarda oʻzi ulgʻaygan vodiy hayotini eslab, bugungi zavodlar va zamonaviy hayot oʻsha tabiiy muhitni qanday oʻzgartirib yuborganidan achchiqlanadi. Bu ham oʻziga xos nostalgiya – yaʼni, tugʻilgan maskanga mehr ifodasidir. I.Yusupovdagidek ochiq Vatan sogʻinchi boʻlmasa ham, T.Xyuzning oʻz yurtiga daxldorlik hissi kuchli. U tabiatga joʻshqin mehrini sheʼriy kuylarga aylantirib, mahalliy landshaftlarni mifologik ruh bilan tasvirlaydi[2; 49-b.]. Xususan, *“River”* deb nomlangan sheʼrlar turkumida u Angliyaning daryolarini goʻyoki jonli jonzot sifatida tasvirlab, suv oqimlarining mavsumlarga koʻra oʻzgarishini kuzatadi. Adabiyotshunos Yvonne Reddick bu turkumni *“suv manbalarining qayta tirilish qudratiga bagʻishlangan bio-markaziy madh”*, deya taʼriflagan – chunki T.Xyuz ushbu sheʼrlarda tabiatni insoniyatdan ustun, abadiy kuch sifatida kuylaydi[5]. Shunday qilib,

T.Xyuz vatani konsepsiyasini tabiat orqali ifoda etsa, I.Yusupov ona yurt va xalq qismati orqali ifodalaydi. Ikkisida ham tug'ilgan diyorga muhabbat mavjud, faqat poetik prizmalar farqlidir.

Muhokama va natijalar.

Har ikki shoir ijodida alohida e'tiborga molik jihat – bu mif va ramzlarning qo'llanilishi. I.Yusupov, yuqorida ta'kidlanganidek, xalq afsonalari va antik miflardan asarlarida foydalangan. Xususan, u allegoriya usulini ko'p qo'llaydi: "Poseydonnín g'azebi" poemasi Aral fojiasini Poseydon timsolida berishi bunga misoldir. Bunda mifologik ramz real hayot muammosini yashirin holda, lekin o'quvchi qalbiga yetib boradigan tarzda ochib beradi. Yoki "Mámelek oy" poemasida "mámelek" (yovuz ruh, shayton yoki jin) obrazi orqali sho'ro davridagi manqurtlashish (dunyoparastlik, mansabparastlik) tanqid qilinadi: poema qahramonlaridan biri boylik va mansab quliga aylanib, oxir-oqibat "qilmish-qidirmish" qabilida jazoga uchraydi. Shoir bu voqeani bobosi rivoyati bilan chatishlab, dunyoviy havas – shayton girdobiga tushish g'oyasini beradi. T.Xyuz ham ramzlarga boy: masalan, uning "Crow" (qarg'a) obrazi butun boshli ramziy xarakter bo'lib, insoniyatning ajralmas bir qismi – "hayot uchun kurashuvchi, mangu yashovchi ilohiy qahramon"ni ifodalaydi[6; 109-b.]. Crow turkumida T.Xyuz turli mifologik qahramonlarni (Xudo, Odam Ato, Momo Havo, Gerakl, Oidip, Buyuk Zmey kabi) qarg'a qarshisida zaif qilib tasvirlab, insoniyatning o'zi yaratgan ma'naviy afsonalarini masxaralash yo'liga boradi. Bu orqali u zamonamizdagi ma'naviy bo'shliqni ko'rsatadi. I.Yusupov va T.Xyuzning ramzlardan foydalanish maqsadlari bir-biriga yaqin: haqiqatni ochiq aytib bo'lmaydigan paytda ramz orqali ifodalash. I.Yusupovda bu ko'proq siyosiy senzura tufayli shakllangan bo'lsa (masalan, ekologik muammoni Poseydon orqali berishi), T.Xyuzda esa falsafiy yondashuv tufayli: u inson ruhiyatining ajinlarini ramz va mif orqali ko'rsatishni afzal bilgan.

Janr va uslub borasida ham ikki shoir o'rtasida qiziqarli qiyosiy jihatlar mavjud. I.Yusupov lirik-epik poemalarida lirik pafos va epik bayonni mohirona uyg'unlashtiradi. Masalan, "Búlbil uyasi"da voqea hikoyasi bayon qilinar ekan, shoir bir vaqtda lirik qahramon kechinmalarini (onaga, yor-do'stlarga sog'inch, urushga la'nat) ichki monolog tarzida beradi. Bu liro-epik usul o'quvchiga voqea tafsilotlarini yurakdan his etish imkonini yaratadi. Xuddi shunday, "Mámelek oy" poemasida ham real syujet chiziqlari (boboning hikoyasi, boy bolaning qissasi, rassom fojiasi) lirik mulohazalar bilan almashinib boradi. I.Yusupov she'riyati uchun chuqur lirizm va psixologik tahlil xos: u qahramonlar qalbiga kirib borib, mayda kechinmalarni ham samimiyat bilan tasvirlaydi. T.Xyuz esa ko'pincha monologik va dramatik uslubni tanlaydi. U ko'p she'rlarini biror jonivorning yoki mifik qahramonning birinchi shaxsdagi nutqi shaklida yozadi. Masalan, "Hawk Roosting" – lochinning monologi, "Crow's Fall" – qarg'aning monologi va hokazo. Bu usul bilan shoir o'quvchini turli nigohlar orqali haqiqatni ko'rishga undaydi. Bundan tashqari, T.Xyuzning she'rlarida keskin syurprizlar va ta'sirli obrazlar ko'p: u metafora va qiyoslar orqali o'quvchini larzaga soladigan manzaralar chizadi. Masalan, yuqorida keltirilgan "Bayonet Charge" she'rida o'q yalang osmonni "qorni och bo'ri"dek teshib o'tayotgani yoki dahshatdan qotib qolgan quyon tasviri o'quvchi miyasida aniq va og'riqli manzara yaratadi[3; 87-102-b.]. I.Yusupov ham o'z navbatida ta'sirchan poetik manzaralar yaratadi – biroq uning uslubi boshqacha: u tabiat manzarasini lirikaning nozik tuyg'ulari bilan qo'shib, ko'proq qayg'uli estetik muhit yaratadi. Masalan, "Búlbil uyasi"da bo'z yigitning onasi va rafiqasi qabr boshida bir siqim tuproqni silab yig'lashgani tasviri nihoyatda ko'ngilga og'ir botadi, ammo ayni paytda unda bir go'zallik va samimiyat bor – onaning o'g'liga, yorning

sevganiga bo'lgan cheksiz mehri sezilib turadi. T.Xyuz esa bu kabi sahnani tasvirlash o'rniga, qahramonning ichki tuyg'usini – masalan, askarning shu onda "bor g'ururi va shon-shuhrati bir pul bo'lib qolganini" his etishini tasvirlaydi. Ko'rinadiki, I.Yusupov dramatik vaziyatning tashqi ko'rinishini lirizm orqali yoritadi, T.Xyuz esa bevosita qahramon ongiga sho'ng'ib, o'sha vaziyatning ichki dramatizmini chiqaradi.

Inson va tabiat munosabati ham ikki ijodkor asarlarida uzviy mavzu. I.Yusupovning bir qancha poema va she'rlarida tabiat voqealari inson taqdiri bilan parallel ketadi (masalan, bulbul uyasiga xavf solgan bo'ron – urush balosi, ilon va kirpi voqeasi – yovuz kimsalar va himoyachilar). Tabiat manzaralari shoir uchun sahna vazifasini o'taydi, unda inson dardi aks-sado beradi. T.Xyuz aksincha, tabiatni faqat fon emas, balki voqeaning bosh qahramoniga aylantiradi. Uning ko'plab she'rlarida hayvonlar va tabiiy unsurlar o'z "lug'ati" bilan gapiradi, inson esa go'yo kuzatuvchi ro'lida qoladi. Bu borada T.Xyuzning poetik pozitsiyasi shamanlarga o'xshaydi: u tabiat ovozini eshitish va eshittirishga intiladi[1; 16-b.]. Masalan, "River" turkumida u suv oqimining o'z "hikoyasi"ni bayon qiladi, "Crow" turkumida qarg'aning nigohi bilan olamni talqin qiladi. Shunday qilib, I.Yusupov va T.Xyuz inson-tabiat munosabatini turli rakurslarda yoritadi: biri odam dardi orqali tabiatni kuylasa, biri tabiat orqali odamga tegishli falsafiy savollar qo'yadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ibrayim Yusupov va Ted Xyuz – ikki boshqacha madaniyat va davr shoirlari bo'lsa ham, ularning ijodida qator mavzu va uslubiy o'xshashliklar kuzatiladi. Ikkalasi ham urush fojiasini teran his qilib, o'z she'riyati orqali urushga qarshi insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi; ikkalasi ham tabiat va mifologiyaga murojaat qilib, zamon muammolarini ramziy talqin etadi. Albatta, farqlar ham bor: I.Yusupov she'rlari Sharqona lirizm va an'anaviy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan bo'lsa, T.Xyuz she'riyati G'arbona tajribalar – modernizm, hatto postmodernizm unsurlarini o'zida aks ettiradi. Ammo har ikki ijodkor ham adabiyot kuchi bilan jamiyatga ta'sir o'tkazish, ogohlik va umid uyg'otishdek oliy maqsadga sodiqdir. Ular qoldirgan meros shuni ko'rsatadiki, turli xalqlarga mansub bo'lsa ham, chinakam iste'dod egalari insoniyat uchun umumiy bo'lgan ezgu g'oyalarni tarannum etishda hamnafas bo'la oladilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bentley, P. (1998). *The Poetry of Ted Hughes*. Hurlow: Addison Wesley Longman. – p. 16.
2. Faas, E. (1980). *Ted Hughes: The Unaccommodated Universe*. Santa Barbara, CA: Black Sparrow Press. – p. 49.
3. Kendall, T. (2005). Fighting Back Over the Same Ground: Ted Hughes and War. *The Yale Review*, 93(1), 87–102.
4. PoetryShark. *Bayonet Charge by Ted Hughes – Poetry Analysis (GCSE)*. Retrieved from:
5. Reddick, Y. *Poetry by Ted Hughes: River*. Retrieved from:
6. Sagar, K. (1978). *The Art of Ted Hughes*. Cambridge: Cambridge University Press. – p. 109.
7. Юсупов, И. (1999). *Өмүр, саған ашықпан*. Нөкис: Қарақалпақстан. – 250-б.
8. <https://poetryshark.wordpress.com/2015/10/26/bayonet-charge-by-ted-hughes-poetry-analysis-gcse/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).